

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov

Farg'ona shahrini rivojlanish tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) 464

ADABIYOTSHUNOSLIK
N.M.Uluqov, N.Siddiqova

She'riy nutqda toponimlarning qo'llanishi va vazifalari..... 470

M.M.Rakhmatova

Amerika adabiyotida implikaturaning stilistik vositalar orqali ifodalanishi tahlili 475

Sh.B.Xo'jayeva

Alisher navoiyning "Nazm ul-javohir" asarida qofiya sathi va asar poetikasi o'rtasidagi bog'liqlik 479

R.R.Mamatov

Gerta Myuller asarlarining badiiy xususiyatlari 483

D.M.Uralova

Ulug'bek Hamdam hikoyalarida tasviriy ifoda va vositalarning o'rni..... 486

N.A.Saidova

K.Iyuisning "Narniya yilnomalari"da bolalar fentezi an'analari 489

K.U.Kubayev

Tarixiy haqiqat va badiiy talqin 493

U.Q.Muminova

"Mahbub ul-qulub" dagi turkiy so'zlarning hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati..... 497

M.Q.Narziqulov

Hozirgi davr tojikzabon ijodkorlarning g'azal janrinirivojlanishidagi roli 502

M.Abdullayeva

Shoir Hayratiy "Sayohatnoma"sining lingvokulturologik tahlili va tadqiqi..... 512

N.Y.Xolmatova

Badiiy publisistikaning muhim xususiyatlari 515

Y.I.Nishanov

Masal (hikoya) janrining asli xususiyatlari 520

Sh.K.Xashimova

Temur Po'latov ijodi haqidagi ba'zi mulohazalar 523

Q.Sh.Kaxarov, S.Mustafojeva

O'zbek va nemis tillarida sen/siz murojaat shakllari..... 527

B.I.Dexqonov

Binokorlik terminlarinig o'quv jarayonidagi kommunikativ omillari..... 531

N.A.Rasulova

Lingvistikada funksional tahlilni tavsiflash 535

M.A.Xusenov, Sh.A.Zoitova

Chet tili o'rganish jarayonida ko'p uchraydigag xatoliklar (koreys tili misolida) 540

G.Xonkeldiyeva

Rus tilida padej kategoriyasi tavsifi va undagi muammolar..... 543

X.Abdurahmonov

O'zbek tilshunosligi tarixida mavhum otlarning o'rganilishi va ularning ahamiyati 546

N.Y.Ortiqova

O'zbek tilida zidlanuvchi vositalar poetikasi..... 550

M.M.Abdulxayeva

Tilshunoslikda sinonimiyaning o'rganilishi va uning turlariga oid olimlarning qarashlari..... 556

N.T.Mutodov

O'zbek tiliga fors tilidan o'zlashgan so'zlar va grammatik kotegoriyalar 560

Q.Sh.Kaxarov, M.Y.Abdurazzakova

Shaxslararo muloqotda noverbal muloqotning ahamiyati 567

M.V.Nasridinov

Buyruq nutqiy aktining lingvopragmatik xususiyatlari..... 570

G.Yusupova

Nemis va o'zbek tillari turg'un birikmalarida genderning ifodalanishi 574

RUS TILIDA PADEJ KATEGORIYASI TAVSIFI VA UNDAGI MUAMMOLAR

ОПИСАНИЕ КАТЕГОРИИ ПАДЕЖА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ И ЕЕ ПРОБЛЕМЫ

DESCRIPTION OF THE CATEGORY OF CASE IN RUSSIAN AND ITS PROBLEMS

Xonkeldiyeva Gulandom¹¹Xonkeldiyeva Gulandom

– Abdulla Oripov ijod maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya

Padej kategoriyasi tavsifiga oid metodik yondashuvlarning rang-barangligi, muammoni oson tasavvur qilish va tushunishga yordam beruvchi turli xil pedagogik texnologiyalar va usullarning qo'llanishiga qaramay ot turkumiga oid so'zlarda padejlarni aniqlash va ularning qo'shimchalarni to'g'ri qo'ya olishda rus tilini ona tili sifatida o'rgangan shaxslarda ham qiyinchiliklar tug'diradi. Padejlarning semantik-grammatik jihatlari, ularning o'rganilish tarixi tahlili shuni ko'rsatadiki, padejlar so'zlarni bog'lashda xizmat qiladi va birikmani hosil qilayotgan so'zlarga muayyan ma'nolarni qo'shadi.

Аннотация

Несмотря на многообразие методических подходов к описанию категории падежей, использование различных педагогических технологий и методов, помогающих легко представить и понять проблему, в умении выявить падежей в словах и поставить правильность их окончаний вызывает затруднения даже у лиц, изучивших русский язык как родной. Анализ семантико-грамматических аспектов словосочетаний и истории их изучения показывает, что словосочетания служат для соединения слов и придания определенных значений словам, образующим соединение.

Abstract

Despite the variety of methodological approaches to describing the category of cases, the use of various pedagogical technologies and methods that help to easily present and understand the problem, in the ability to identify cases in words and put the correctness of their endings, causes difficulties even for people who have studied Russian as a native language. An analysis of the semantic and grammatical aspects of word combinations and the history of their study shows that word combinations serve to connect words and give certain meanings to words that form a connection.

Kalit so'zlar: qo'shimchalar, so'z birikmalari, padejlar, ma'no, tizim.

Ключевые слова: окончания, словосочетания, падежи, значение, система.

Key words: endings, phrases, cases, meaning, system.

KIRISH

Padej tizimini o'qitish, uni o'rganish masalasi zamonaviy tilshunoslik oldida turgan eng muhim muammolardan biri sifatida qayd etiladi. Metodik yondashuvlarning rang-barangligi, muammoni oson tasavvur qilish va tushunishga yordam beruvchi turli xil pedagogik texnologiyalar va usullarning qo'llanishiga qaramay ot turkumiga oid so'zlarda padejlarni aniqlash va ularning qo'shimchalarni to'g'ri qo'ya olishda rus tilini ona tili sifatida o'rgangan shaxslarda ham qiyinchiliklar tug'diradi. Padejlarni o'rganishdagi bu qiyinchiliklar rus tilidagi ushbu kategoriyaning tabiatidan kelib chiqadi. Padej atamasining o'ziga tilshunoslar tomonidan bir qancha ta'riflar berilgan. Masalan, "Языкознание. Большой энциклопедический словарь" (1998) da har bir padejning mohiyati ochib berilishi bilan birga uning boshqa padejlar bilan sinonimiyasiga ham to'xtalangan: "otning nutqdagi boshqa so'zlar bilan sintaktik munosabatni ko'rsatuvchi kategoriyasi. Kelishik kategoriyasi otlarning tobe maqomda hokim so'zga birikishini ta'minlaydi" [1:114]. Tilshunos olim A.A.Zaliznyak padej tushunchasini ikki yoki undan ortiq kelishiklar bilan qiyoslanadigan grammatik kategoriya sifatida tavsiflaydi [2:54]. Lingvistik tadqiqotlarda qo'llangan, tahlil qilingan "padej" atamasini ikki xil izohlash mumkin: a) semantik jihatdan; b) shakliy jihatdan. Padejlarning semantik izohini A.Zaliznyak "bir xil shaklga ega bo'lgan, ya'ni ko'rinishdan farqlanmaydigan ikki turli padejning ma'nosidagi turlichalikka asoslanishida" [2:54] deb biladi. Bunda muayyan padej so'zning ma'noviy munosabatlarga kirishishini ta'minlaydigan tarkibiy qismi sifatida qaralgan. Padejning shakliy izohi esa, A.Zaliznyakning fikriga ko'ra, avvalo, uning tashqi ifodalanishidan kelib chiqadi va muayyan padejni o'z ma'nosini ham, shuningdek, bir nechta padejning ma'nosini ifodalay oladigan so'z shakli ekanligidir [2:58].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Quyida keltiriladigan bir nechta manbalarda ham padej kategoriyasining ma'noviy va shakliy jihatlarning uyg'unligiga e'tibor qaratilgan. Masalan, "Rus tili grammatikasi" (1980) da kelishiklarga

quyidagicha ta'rif berilgan: "otning boshqa turkumlar bilan munosabatini so'z birikmasi va gap tarkibida namoyon qiluvchi, o'zaro qiyoslanganda ma'nosi yuzaga chiqadigan so'z o'zgartiruvchi shakl padej kategoriyasidir" [3:58]. Padej yana bir manbada "shaklan farqsiz, ammo ma'nosiga ko'ra farqlanadigan so'z o'zgartiruvchi kategoriya" [4:468-469] sifatida sharhlanadi. Bunda o'zbek tilidagi ba'zi ravishlar tarkibida kelishiklarning "qotib qolishi", "yaxlitlanishi" nazarda tutiladi. Shuningdek, bu qoidaga asosan, padej ma'nosi so'z shaklining o'zida emas, balki padejli so'zning boshqa hokim bo'lak bilan birikma hosil bo'lishida namoyon bo'ladi.

Kategoriya uchun keltirilgan ta'riflar ko'rsatadiki, padej tushunchasi ko'p qirrali va mohiyati keng hodisa hisoblanadi va unga aniq ta'rif berish qiyinchilik tug'diradi. Padej grammatik kategoriya bo'lganligi tufayli ham morfologiya (bir umumiy ma'noga ega, ammo o'z ichki farqlariga ega morfologik shakllar sifatida), ham sintaktis (bir sintaktik birlikning boshqa sintaktik birliklar bilan aloqasini ko'rsatuvchi vosita sifatida) ning o'rganish obyekti hisoblanadi. Shunga asosan, "rus tilini chet tili sifatida o'rganuvchilar padejlarni funksional jihatdan – har bir padejning qo'llanish sharoitidan (masalan, o'rin, payt, o'timlilik kabi) kelib chiqib tahlil qiladilar" [5:197-201]. Tilni funksional jihatdan tahlil qilish va o'rganish zarurati rus tilida so'zning morfologik shakllari unda bo'lgan o'zgarishlarni namoyon etuvchi vosita sanaladi. Sanalgan xususiyat bir nechta grammatik ma'nolarni qamrab oluvchi padej kategoriyasiga ham taalluqlidir (Masalan, *тепеадам* oti ham ko'plik va творительный падеж ma'nolarini ifodalaydi).

Padejlar anglatadigan ma'no (so'zga qo'shadigan ma'nosi nazarda tutilmoqda) tadqiqi masalasi M.P.Ruskova, V.S.Cheppel, K.Sh.Gubasheva, I.P.Susov kabi tilshunoslardan tomonidan ham o'rganilgan. "Rus morfologiyasida padejlarning asosiy ma'nolari sifatida obyekt, subyekt va aniqlashtirish kabilar qaraladi" [5:197-201]. Bu uch ma'no har bir kelishikning o'z ma'nosiga bog'liq ravishda semantik jihatdan farqlanadi. Padej tizimida har bir padej ma'nolarida asosiy (markaziy) va qo'shimcha (ikkilamchi) ma'nolar ajratiladi. Padej tizimining murakkabligi va o'rni bilan turlichaligi rus tilini chet tili sifatida o'rganuvchilar uchun eng muhim lingvistik hodisalardan biriga aylantiradi. Rus tilidagi predlogli padej tizimi grammatikaning qiyin o'zlashtiriluvchi qismlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli predlogli padej shakllarining xususiyatlarini yaxshi o'zlashtirish lingvistik kompetensiyani shakllanishida, nutqda ularni qo'llash, ma'nosini to'g'ri anglash imkonini beradi. Padej tizimini yaxshi o'zlashtirish umaman rus tilini o'rganishda muhim o'rin tutishi N.V.Ufimtsev, O.M.Arkadyev, L.G.Inchina, Z.D.Popov kabi olimlar tomonidan ham e'tirof etilgan.

Padej kategoriyasining ko'p qirraliligi va turli xususiyatlarga egaligi haqida fikr yuritildi va bunda uning sintaktik jihatlari chetlab o'tish imkonsiz. Padej tizimi sintagmatik va paradigmatic munosabatlarga kirishar ekan bunda uning sintaksisga aloqadorligi namoyon bo'ladi. Albatta, bu aloqadorlik morfologik qonuniyatlar bilan amalga oshadi. Bu aslida morfologiya va sintaksis o'zaro bog'liqligi haqidagi fikrning dalillanishi, deyishimiz mumkin. Bu haqida A.Shaxmatovning fikrlari o'rinni: "Morfologiya nazariya bo'lsa, sintaksis amaliyotdir" [6:13]. Anglashiladiki, padej kategoriyasi bilan bog'liq qonun-qoidalar, ta'riflar morfologiyada o'rganilsa ham, sintaksis bo'limida padejlarning so'zlarga qo'shilishi va ularni hokim so'zga bog'lashida sintaksisning ta'siri seziladi. Bu qonuniyatlarining amalda qo'llanishini otlarning (keng ma'noda) turlanish tizimida ham ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Masalan, "Rus tili grammatikasi" (1953) da padejlar soni oltita ekanligi aytiladi: : *именительный, родительный, дательный, винительный, творительный* va *предложный* padejlar. Ushbu manbada padej tizimining son kategoriyasi bilan bog'liqligi, o'zaro aloqadorligi ham aytib o'tilgan. Chunki ma'lum bir padejdagi so'zlar birlik yoki ko'plik sonda ham bo'lishini inkor etib bo'lmaydi. Shuningdek, padej tizimi rus tilida mavjud bo'lgan mujskoy, jenskiy va sredniy rodlarga, jonli va jonsiz shaxs va narsa-buyumlarni ifodalashiga ham aloqador ekanligi haqidagi ma'lumotlar mazkur manbaning qimmatini oshirgan [7].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Polyak olimasi A.Vejbitska kelishik kategoriyasi semantikasini tahlil qilar ekan, bu borada (kelishiklarning ma'no anglatishi – G.X.) ularni to'rt turga bo'lish mumkinligini yozadi:

"1) padejlar ma'no anglatadi, ammo bu ma'nolar polisemantiklik xususiyatiga ega. Shu tufayli bu ma'nolarni bir-biridan to'liq aniqlik bilan ajratib bo'lmaydi;

2) padejlar ma'no anglatadi, ammo bu ma'nolar juda kam, shu sababli ularni bir-biridan farqlash oson;

3) padejlar ma'no anglatadi va ularning hammasi monosemantik xususiyatga ega;

4) padejlar ma'no anglatmaydi, ularning shakllari, shunchaki, markirovka vazifasini bajaradi" [8:309]. A.Vejbitska tahlilidan ham ko'rinadiki, padej kategoriyasi semantikasi haqida tilshunoslarning fikri turlicha va ba'zi o'rinlarda qarama-qarshi ham keladi. Bunda padejlarning har birining ma'nosini izohlashda "kelishik ma'nosi" va u qo'shilayotgan so'zning lug'aviy ma'nosi ajratish muammosi paydo

ADABIYOTSHUNOSLIK

bo'ladi, chunki aksariyat hollarda ularni aniq farqlash mumkin bo'lmay qoladi. Fikrlarning turlichaligiga ham, aslida, ana shu muammo sabab bo'lgan, deyishimiz mumkin.

Padej tizimi tahlilini amalga oshirish uchun mavjud padej shakllari ifodalashi mumkin bo'lgan barcha ma'nolarni bilish va tizimlashtirish zarur bo'ladi. Buni amalga oshirish uchun padej kategoriyasi tizimini to'liq tahlil qilish va har bir a'zoni boshqasiga qiyoslash lozim bo'ladi. Bu borada ayrim ishlarni amalga oshirgan R.Yakobson padej tizimini morfologik bog'liqlik, o'zaro aloqadorlik asosida tavsiflaydi. Bunda u har bir padej shaklining individual ma'nolarini ajratmaydi, aksincha ularning vazifasini aniqlashtirishga harakat qiladi. Uning fikriga ko'ra, har bir padej pog'onali joylashadigan bir nechta ma'noga ega [9:160]. Bu ma'nolarni ochish, uning mohiyatiga yetish uchun esa sintaksis bo'limida o'rganiladigan so'zlarning birikuvi masalasiga ham to'xtalib o'tish lozim edi. R.Yakobson nazariyasiga ko'ra rus tili padej kategoriyasini sakkizta padej tashkil etadi: 1) *номинативный (именительный)*; 2) *аккузативный (винительный)*; 3) *1-генитивный (родительный)*; 4) *2-генитивный (партитивный)*; 5) *инструментальный (творительный)*; 6) *дативный (дательный)*; 7) *1-локативный*; 8) *2-локативный*. R.Yakobsonning padejlarni tizimlashtirishida *2-генитивный* va *2-локативный* padejlar mavjudligi bilan an'anaviy oltitalik tizimdan farqlanadi. R.Yakobson bu "ortiqcha" padejlarni "ikkinchi" aniqlovchisini qo'shib nomlashiga ularning birinchi padejlarga qiyosan, qo'shimchalardagi farqlar asosida hosil bo'lishi sabab bo'lganligini aytadi [9:160].

XULOSA

Anglashiladiki, rus tilida padej kategoriyasining o'rganilishi, ularning nutqda qo'llanishi va so'z ma'nosiga ta'siri, sintaktik va morfologik xususiyatlari tadqiqi boy tarixga ega. Bu kategoriyaning lingvistik tabiati borasidagi qarashlar, uni ochib berishning usullari borasidagi tadqiqotlar va izlanishlar rus tilshunosligida salmoqli. Bu tadqiqotlarning natijalarini umumlashtirish uchun ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish, ajratish lozim bo'ladi. Biz padej kategoriyasini tizim sifatida tasvirlagan olimlarning va shu yo'nalishda ish olib borgan olimlarning fikrini qo'llab-quvvatlash mumkin, deb hisoblaymiz. Bunga qarshi bo'lgan olimlarning fikriga ko'ra "til o'ta murakkab hodisa va u struktural tilshunoslik tilni qulay tizimlashtirishlari uchun yaratilmagan. Ammo padej kategoriyasi sharhida real holatga ozmi-ko'pmi yaqinlashtirilgan modellarni nazarda tutamiz. Bu modellarning qimmatlari shundaki, ular ancha tizimli, tartibli"[10:57]. Demak, padej kategoriyasi sharhi ularni bir tizim sifatida qaralganda lingvistik nuqtayi nazardan ancha qulay. Umuman olganda, padejlarning semantik-grammatik jihatlarini, ularning o'rganilish tarixi tahlili shuni ko'rsatadiki, padejlar ismlarni hokim so'zga bog'lashda xizmat qiladi va birikmani hosil qilayotgan so'zlarga muayyan ma'nolarni qo'shadi. Bu ma'nolar, aksariyat hollarda birikmani hosil qilayotgan so'zlarning lug'aviy ma'nolariga bog'liq holda o'zgaradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Языкознание. Большой энциклопедический словарь // гл. ред. В. Н. Ярцева. Изд-е 2-е. - Москва: Большая Российская энциклопедия, 1998. - С. 114. - 685 с.
2. Зализняк А.А. О понимании термина «падеж» в лингвистических описаниях // Проблемы грамматического моделирования / под ред. А. А. Зализняка. Москва: Наука, 1973. - С. 54.
3. Русская грамматика // гл. ред. Н. Ю. Шведова. Т. 1. - Москва: Наука, 1980. - С. 789.
4. Рахманова Л.И., Суздальцева В.Н., Современный русский язык. Лексика. Фразеология. Морфология: учебник. - Москва: Изд-во Мос. ун-та ЧеРо, 1997. - С. 468-469. - 480 с.
5. Морозовская М.П., Описание падежной системы русского языка для иностранных учащихся // Тамбов: Грамота, 2018. № 1(79). Ч.1. - С. 197-201.
6. Шахматов А.А., Синтаксис русского языка. 2-е изд. - Ленинград: Учпедгиз, 1941. - С. 13. - 620 с.
7. Грамматика русского языка. В двух томах, Тома 1-2 (В трех книгах) - Виноградов В.В.; Истрина Е.С. - Москва: Академии Наук СССР, 1953-1954.
8. Вежбицка А., Дело о поверхностном падеже // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 15. Москва: Прогресс, 1985. - С. 309. (- С. 303-341)
9. Jakobson R. Russian and Slavic Grammar Studies 1931-1981. - Berlin - N. Y. - Amsterdam: Mouton Publishers, 1984. - 160 p.
10. Лаврентьев А.М., Типологический анализ категории падежа в русском языке, дисс. канд. филол. наук., - Новосибирск: 1999. - 229 с.